

OG‘ZAKI SO‘ZLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH*Sh. Zaripova¹, N. Chimberdiyeva²**Annotatsiya:*

Har bir tilni o‘rganishning 4 ko‘nikmasi mavjud va ularni o‘rganishning maxsus yo‘llari mavjud. Tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish har qanday til o‘rganuvchi oldida turgan asosiy maqsad hisoblanadi. Bularning orasida gapirish ko‘nikmasi barcha til o‘rganuvchilar uchun qiyin va ba’zi holatlarda ular umuman gapira olishmaydi. Bunga sabab esa ularda o‘z kamchiliklaridan uyalish hissining kuchli ekanligi va uni boshqara olmasligidir. Ushbu maqolada siz qanday qilib o‘zga tillarda gapirish ko‘nikmasini shakllantirish usullarini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: eshitish, so‘z boyligi, tinglab tushunish, to‘g‘ri talaffuz qilish, audio, turlar

doi: <https://doi.org/10.2024/69636m47>

Kirish

Barchamizga ma’lumki, har bir tilning o‘z shakl va o‘rganish davomidagi qiyinchiliklari mavjud. Ularni shakllantirish va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish borasida har qanday til o‘rganuvchi uchun qiyinchiliklar paydo bo‘lishi esa tabiiy holdir. Ayniqsa gapirish ko‘nikmasini shakllantirish davomida avvaliga katta qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Keyinchalik esa ular asta kamayishni boshlaydi. O‘zga tillarning o‘z talaffuz qilish yo‘nalishi ham mavjudligini hisobga oladigan bo‘lsak, so‘zlarning qanday yozilishi va talaffuz qilinishiga jiddiy ahamiyat berish kerak bo‘ladi. Misol uchun ingliz tilidagi *through* so‘zining o‘qilish qoidasi /θru:/. Ammo talaffuzda yozilgani kabi o‘qilmaydi. Sru deb talaffuz qilinadi. Bu esa til o‘rganuvchini ancha chalg‘itib qo‘yishi mumkin. Chunki ingliz tilida bu kabi so‘zlar anchagina. Tinglab tushunish ko‘nikmasi bilan gapirish ko‘nikmasi uzviy bog‘liq hisoblanadi. Nega deganda, to‘g‘ri eshitgan inson uni to‘g‘ri tarjima qila oladi va to‘g‘ri javob bera oladi. Aslini olganda barcha til ko‘nikmalari bir-biriga uzviy bog‘liqdir, har bir til o‘rganish jarayonida juda muhimdir. Xususan yozish ko‘nikmasi orqali ham gapirish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun mavzuga doir bo‘lgan yangi so‘zlar topiladi. Ular nafaqat yozishda balki og‘zaki nutqda ham qo‘llasa bo‘ladigan so‘zlarni ham yozishda ham gapirishda qo‘llashi kerak bo‘ladi. Aksar til o‘rganuvchilar aynan shu tarzda ham gapirish ko‘nikmasini shakllantiradilar. Har kuni bittadan mavzuga doir bo‘lgan kerakli so‘zlarni topib ular ishtirokida matn yozish va og‘zaki nutqda qo‘llash kerak. Yoki turli xil savollarga javobni yozib keyin yodlash ham gapirish ko‘nikmasi juda past bo‘lgan insonlarni 1 oy davomida IELTS imtixonida 5-5.5 ball oladigan

¹ Zaripova Shaxnoza Shahobiddinovna, Samarqand davlat chet tillari instituti
Ingliz II fakulteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

² Chimberdiyeva Nafisa Egamberdi qizi, Samarqand davlat chet tillari instituti
Kechki fakulteti 3-bosqich talabasi

darajada nutqini shakllantiradi. Savollarga javob yozish, til o'rganuvchida 60% esda qoladi va uni yodlaganda esa bu javob uning xotirasida kamida 6 oy mobaynida saqlanib turishini ta'minlaydi. Har bir o'rganuvchini til o'rganishi uchun o'z texnikasi bo'ladi. Kimdir aynan shu yozib o'qish orqali tilni yaxshi o'rgansa, kimdir esa ko'proq o'qib, ya'ni reading qismi orqali o'z nutqini rivojlantiradi.

Ayrim hollarda insonlarda gapirish ko'nikmasi grammatikasiz ham atrof – muhit orqali yaxshi rivojlanishi mumkin. Ya'ni bunda 1- muhit eng birlamchi omil vazifasini bajaradi. Bunda albatta o'rganuvchi mustaqil, ko'chadan yokida boshqa shaharga tashrifida, aynan shu tilda gaplashadigan insonlar doirasida bo'lganligida uni tezroq o'rganadi. 2-muhit esa bu bir o'quv markazi, ta'lim muassasida o'qituvchi tomonidan yaratilgan shart-sharoit muhit orqali rivojlanadi.

Muhokama va natijalar

Har qanday muammoning yechimi va natijasi bo'lganidek, gapirish ko'nikmasini shakllantirishning ham qulay bo'lgan usullari mavjud. Hozir texnologiyaning jadal rivojlanganligi sababli ham til o'rganishda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Jumladan, ayrim mobil ilovalar til o'rganuvchilar uchun ayniqsa, gapirish ko'nikmasini shakllantirish uchun ancha qo'l keladi. FluentU-bu ilovada siz istalgan videoni tamosha qilishingiz, ekran ostida video davomida eshitgan so'zlaringizning matnini ham o'qib tushunib borishingiz mumkin bo'ladi. Bunda siz yozilishi va talaffuz qilinishi turlicha bo'lgan so'zlarni o'rganishingiz mumkin. ELSA Speak – bu ilova sizda to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmangizni shakllantirishga ulkan hissa qo'shadi. Ulardan yana biri esa Memrise- bunda ingliz tilidagi iboralarni o'rganishingiz va qulay bo'lgan so'z birikmalarini ham yodlab olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu kabi kerakli ilovalar juda ko'p, ammo ularni faqat saralab olish va har bir odam o'z qiziqishidan kelib chiqqan holda tanlashi zarur. Ammo bir narsani ta'kidlash joizki, mobil ilovalar bu shunchaki bizga yordamchi xolos. Avvalo, biz grammatik qoidalarni yaxshi bilishimiz va bema'lol gapirib keta olishimiz uchun ustoz bilan birgalikda ishlashimiz kerak bo'ladi. Misol tariqasida shuni ayta olamanki, agar siz boshlang'ich bilimni ya'ni umumiy (general) bilimingizni yaxshi rivojlantirib olsangiz, keyin gapirish uchun ham alohida qat'iyat bilan kirishishingiz kerak bo'ladi. Har bir bosqich o'zining ko'plab vazifalariga va majburiyatlariga ega. Unda so'z yodlash tartibi, matnlarni o'qib tahlil qilish, dialoglar tinglash va ulardagi mazmunni anglagan holda to'g'ri talaffuz qilish kerak deb hisoblayman.

Ammo ayrim til o'rgatuvchilar bu usul juda eski va qiyin deb hisoblashadi. Ular boshqa bir usulni ya'ni "Shadowing" texnikasini taklif qilishadi va o'z o'quvchilarida allaqachon sinab ham ko'rishgan. Bu texnikaning asosiy vazifasi shundan iboratki, u Grammatik qoidalarsiz ham gapira olish ko'nikmasini yaratishga yordam beradi. Bu usul 1950-yil Rossiyda nutqida kamchilig bor insonlar uchun ishlab chiqilgan va televideniyalarda namoyish qilib borilgan. Undan keyin esa Amerikalik olimlar buni ta'limga ya'ni xorijiy tilni o'rganishga qo'llab ko'rishgan. Ammo bu texnika bizning mamlakatimizda ancha yillar mobaynida shakllanmagan edi. Hozirgi kunda esa bu usulni bilmaydigan insonning o'zi topilmasa kerak. Aynan bu texnikani qo'llash orqali til o'rganuvchilar to'g'ri talaffuz qilishni, so'zlarga urg'u berib gapirishni va bo'g'inlarni ham birdan talaffuzida o'rganib ketadilar. Videoda yoki audiodagi so'zlarni huddi eshitganlaridek qaytarishlari orqali ular boshlanishida qiyinchilik bilan talaffuz qilishlari mumkin, ammo bu qiyinchiliklar tezda ortda qoladi va ular keyinchalik oson bu usul bilan shug'ullana boshlaydilar. Lekin,

hammaga ham bu usul yordam bera olmaydi. Yani boshi ta'kidlab o'tganimizdek, har bir ta'limni oshirishga qaratilgan usullar ayrim toifadagi insonlarga yordam bera oladi holos. Ayrim insonlarning ongiga esa boshqa usullar qulay bo'ladi.

Yana bir qulay usul mavjudki, u so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantiradi. Savollarga javoblar tayyorlash, yoki biror mavzuda matn tayyorlab talaffuz qilish va talaffuz qilayotgan paytda uni telefonning ovoz yozish funksiyasiga yozib olish kerak bo'ladi. Uni eshitib ko'rib qanchalik to'g'ri talaffuz qilingani tekshirib ko'riladi. Agar to'g'ri talaffuz qilinmagan so'zlar miqdori ko'p bo'lsa, xatolarni tuzatib yana qayta ovoz yozib olinadi. Odatda to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun bu usulni 7 yoki 8 marta qayta va qayta bajarishga to'g'ri keladi. Albatta, biror natijaga erishish uchun keraklicha vaqt va mashaqqat kerak bo'ladi.

Bundan tashqari yana bir usul sifatida ingliz tilidagi "Retelling" ni keltirishimiz mumkin. Bu usulda siz biror video ko'rishingiz kerak, yoki biror bir kattaroq hikoya olib uni o'qiymiz va uni sherikimizga qarab o'qib beramiz. Bu usulda ya'ni siz o'zingiz eshitgan textni qaytarib aytasiz, bu orqali ham nutq, ham sizning so'z boyligingiz va talaffuz qilishingiz yanada oshadi. Retelling texnikasi uchun agar siz sherik topolmasangiz, o'sha eshitgan textlaringizni huddi o'zidek qilib, ko'zguga qarab aytib berishingiz ham mumkin. Bu usul sizda o'zingizga ishonchni oshiradi va hayajoningizni bosadi, bu tilda gaplashishga uyalayotgan insonlarda nutqni ravon va chiroyli tarzda ifoda etishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, gapirish ko'nikmasini shakllantirishda uyatchan bolalar bilan ishlashda ancha qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin, ammo barchasida ham emas. Bizning o'zbekona odatlarimizda farzand kamroq gapirishi va ko'proq tinglashi kerak hisoblanadi. Ammo ingliz va boshqa xorijiy tillarda esa ko'proq tinimsiz gapiradigan, gapdon bolalar gapirish ko'nikmasini tezda rivojlantiradilar. Xalqaro til bilish imtixonlarida ham aksar gapdon o'rganuvchilar gapirish ko'nikmasidan yuqori bahoni qo'lga kiritadilar. Chunki ular o'zlaridagi qo'rquvni, o'zlarida uyalish hissini yengib o'tgan bo'lishadi va ular xato gapirsalar ham gapirishdan to'xtamaydilar. Til o'rganuvchilardagi eng katta qiyinchilik bu o'zlikdan uyalish hissi bilan yashash. Qanchalik til o'rganuvchi yangi usullarda mashq qilmasin, qulay ilovalardan foydalanmasin va hattoki grammatikani ham zo'r o'rganmasin agar o'zidagi qo'rquvni va uyatni yenga olmas ekan, u hech narsaga erisha olmaydi. Aksar til o'rganuvchilarning asosiy maqsadi yetarli darajadagi til sertifikatiga ega bo'lish. Ular shuning uchun ham tilni faqat imtixonga kirish darajasida o'rganadilar. Ammo bu notog'ri. Uni kundalik hayotimizga doimiy til sifatida olib kirish kerak. Bunda asosan og'zaki nutq muhim rol o'ynaydi. Uydagi barcha uy anjomlarini xorijiy tilde yodlash, kundalik muhim so'zlashuvlarni yodlash va amalda qo'llash, o'rganayotgan tilni huddi o'z ona tilidek ko'p qo'llashi kerak bo'ladi. Aynan mana shu holatdagina gapirish ko'nikmasini tez va oson shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Johnson, K. E. *The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education.* // *TESOL Quarterly.*, – London., 2006

- [2]. Пассов Э. И. *Общительный метод обучения иностранного разговора.* – Москва., 1985.
- [3]. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/download/2037/3895/1977>
- [4]. <https://honzodaenglish.uz/kurs>